

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI
XALQARO BAHOLASH DASTURI (PIRLS) TAJRIBASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

Rahmonova Halima Abdug'aniyevna

Kosonsoy tumani 44-sonli maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlanirish masalasi xalqaro baholash dasturi – PIRLS tajribasi asosida tahlil qilingan. Xalqaro mezonlar milliy ta'lif standartlari bilan solishtirilib, o'quvchilarda matnni anglash, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha samarali yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lif, PIRLS, tanqidiy fikrlash.

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития читательской грамотности учащихся начальных классов на основе опыта международных оценочных программ PIRLS. Сравниваются международные критерии с национальными образовательными стандартами, освещаются эффективные подходы к формированию у школьников навыков понимания текста, анализа и критического мышления.

Ключевые слова: читательская грамотность, начальное образование, PIRLS, критическое мышление.

Abstract: This article examines the development of reading literacy among primary school students based on the experience of international assessment programs PIRLS. International criteria are compared with national education standards, and effective approaches to fostering text comprehension, analysis, and critical thinking skills in students are highlighted.

Keywords: reading literacy, primary education, PIRLS, critical thinking

Bugungi kunda globallashuv va integratsiya jarayonlari ta'lif sohasiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lif davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yangicha innovatsion yondashuvlar asosida rivojlanirilmoxda va bu borada keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Ta'lif-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lif standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur". Ta'lif sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy,

xalqaro hamda xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar olindi:

- 1) Xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish;
- 2) PIRLS, baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish.

O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limi tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati alohida o‘ringa ega. Jumladan, PIRLS xalqaro baholash dasturi orqali aynan bunga misol bo‘ladi.

4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtiroy etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich mакtab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarining har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

O‘qish savodxonligini baholash o‘quvchining funksional savodxonligini baholanishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. O‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish, o‘qiganlarini tahlil qilish, talqin qilish va to‘g‘ri xulosa chiqara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘srimcha didaktik material sifatida “4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan pirls xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish uchun mashq daftari” ishlab chiqilgan. Ushbu mashq daftarida o‘quvchilarga turli shakldagi savollar taqdim etiladi. Quyida PIRLS testlaridan namuna keltirilgan:

“Bir kuni Nodira deraza yonida o‘tirib, yomg‘irni tomosha qildi. Mayda yomg‘ir tomchilari oynadan pastga oqib, chiziqlar hosil qilar edi. Shu payt u deraza ortida chumchuqlar bir-biri bilan uchib, yana daraxt shoxiga qo‘nganini ko‘rdi. — Voy, yomg‘irda ham o‘ynashar ekan, — dedi Nodira hayrat bilan.”



Savollar:

- | | | | |
|-----------------------------|---------------|--------------|---------|
| 1. Matndan | to‘g‘ri | javobni | toping. |
| Nodira | deraza | yonida | edi? |
| A) | kitob | nima | edi |
| B) | yomg‘irni | tomosha | edi |
| C) | chumchuqlarni | qilayotgan | edi |
| D) daraxtga chiqayotgan edi | | kuzatayotgan | |
2. Nodirani nima hayratlantirdi?
-
3. Sizningcha, chumchuqlar yomg‘irda nima uchun o‘ynashgan bo‘lishi mumkin?
-
4. Agar siz Nodiraning o‘rnida bo‘lsangiz, yomg‘irli kunda qanday mashg‘ulot bilan shug‘ullangan bo‘lardingiz?
-

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishni xalqaro baholash dasturlari tajribasiga tayangan holda amalga oshirish uchun quyidagi imkoniyatlar mavjud:

1. **O‘quv dasturini boyitish** – PIRLS topshiriqlariga o‘xshash matnlar va mashqlarni milliy dasturga integratsiya qilish. Masalan, faktual (axborot beruvchi), badiiy va aralash matnlarni tahlil qilish topshiriqlarini o‘quvchilar uchun moslashtirish.

2. **Dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash** – “Keys-stadi”, “Loyiha metodi”, “Rol o‘ynash” kabi usullar orqali o‘quvchini o‘qilgan matn asosida real hayotiy muammoni hal etishga jalgan etish.

3. **O‘qituvchilar malakasini oshirish** – xalqaro mezonlar asosida o‘qituvchilarni o‘qitish kurslarini tashkil etish, seminar va master-klasslar o‘tkazish. Bu orqali o‘qituvchilar o‘qish savodxonligini shakllantirishning zamonaviy metodlari bilan tanishadilar.

4. **Baholash tizimini takomillashtirish** – o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini faqat tezlik bilan emas, balki matnni anglash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga qarab o‘lchash.

5. Mahalliy va xalqaro hamkorlik – boshqa davlatlarning boshlang‘ich ta’limdagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish, maktablararo hamkorlik loyihibarini yo‘lga qo‘yish.

6. Motivatsiyani oshirish – o‘quvchilarni kitobxonlik tanlovlari, viktorinalar, onlayn marafonlarga jalb qilish orqali o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, PIRLS tajribasi boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun muhim metodologik asosdir. O‘qish savodxonligi tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi, o‘quvchini nafaqat bilim olishga, balki uni hayotda qo‘llashga ham tayyorlaydi. Boshlang‘ich sinfda xalqaro tajribani milliy ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning xalqaro maydonda raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu sababli, o‘qituvchilarni tayyorlash, innovatsion metodlarni qo‘llash va oila hamkorligini kuchaytirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish savodxonligini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
2. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009
3. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 243-247.
4. www.lex.uz